

TERRORIZMNING PAYDO BO'LIQ TARIXI VA SALBIY OQIBATLARI**Xudoyazarova Xurshida Shuhrat qizi**

Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19666522>

Annotatsiya. Mazkur maqolada terrorizmning paydo bo'lish tarixi va salbiy oqibatlari dalillar asosida tahlil qilingan. Terrorizmning jamiyat farovonligiga ta'siri, globallashuv jarayonida halokatli tushuncha ekanligi va insonlarning ongida mafkuraviy virus sifatida tarqalishi shiddat bilan o'sib bormoqda. Shu boisdan "terror" tushunchasining dastlabki qo'llanilish sabablari va uning hozirgi vaqtdagi destruktiv g'oyalari ushbu mavzuni yoritish uchun asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: Terrorizm, terroristic harakatlar, fenomen, radikal qarashlar, mafkuraviy virus, OAV, globallashuv, yot g'oyalar, rahnamolar, terroristik guruhlarning peshvolari.

Аннотация. В данной статье на основе доказательств анализируются история возникновения терроризма и его негативные последствия. Стремительно растет влияние терроризма на благосостояние общества, его понимание как разрушительного явления в процессе глобализации и распространение в сознании людей в качестве идеологического вируса. В связи с этим, первоначальные причины использования понятия "террор" и его современные деструктивные идеи послужили основой для освещения данной темы.

Ключевые слова: Терроризм, террористические акты, феномен, радикальные взгляды, идеологический вирус, СМИ, глобализация, чуждые идеи, вожди, лидеры террористических групп.

Abstract. This article analyzes the history of the emergence of terrorism and its negative consequences based on evidence. The impact of terrorism on the welfare of society, its nature as a catastrophic concept in the process of globalization, and its rapid spread as an ideological virus in the minds of people are steadily increasing. For this reason, the initial reasons for using the term "terror" and its current destructive ideas were taken as the basis for covering this topic.

Keywords: Terrorism, terrorist acts, phenomenon, radical views, ideological virus, mass media, globalization, alien ideas, leaders, heads of terrorist groups.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan integratsiya jarayonlari jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevoriga ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki, e'tiqodiy va dunyoviy qarashlar tizimining transformatsiyalashuviga ham sabab bo'lmoqda. Hozirgi ilmiy doiralarda terrorizm tushunchasi uchun universal to'xtamga kelinmagan. Terroristik tahdidlar muayyan geografik hududda yuzaga kelganda o'sha joydagi milliy qadriyatlar, e'tiqodiy asoslar va xo'jalik tizimini izdan chiqarish orqali umumiy osoyishtalikka jiddiy xavf soladi. Tarixan ko'plab davlatlarning ichki tuzilishi va tashqi aloqalarida muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, nomutanosibliklar hamda tizimli kamchiliklar kuzatilgan. Bunday vaziyat terrorizmning rivoj topishi uchun sharoit yaratib berdi. Terrorizm fenomenining mazmuni radikal qarashlar, vayronkor g'oyalar hamda insoniyatga yoki davlat tuzumiga qarshi qaratilgan tajovuzkor maqsadlar yig'indisidan iboratdir. Kishilarning ruhiyatini terrorizm tushunchasi bilan bog'laydigan bo'lsak, albatta, yuqoridagi fikrlarni o'z tafakkurida namoyon qilgan insonni ruhiy jihatdan sog'lom deya olmaymiz, chunki ruhiy tomondan muammosi bor odamlarning jinoyatga

moyilligi tan olingan¹. Terroristik harakatlarning kelib chiqishida faqatgina insonlarning ruhiy jihatidan nosogʻlom boʻlganligi emas, balki, ularning din niqobi ostida rejali harakatlar qilib oʻz domiga tortayotgan "rahnamo"larning roli kattadir. Ular diniy mamlakatni qurish degan fikr bilan oʻz harakatlarini boshlaydi, ammo bu harakatlar ortida hokimiyatni qoʻlga kiritish ilgari yotadi.

Muhokama va natijalar:

Inson zoti dunyoga kelar ekan birdaniga har bir narsani bilib, butun borliqdan ogoh boʻla olmaydi. Uning atrofidagi muhit, insonlar xohlaymizmi yoʻqmi tarbiyasiga taʼsir koʻrsatishadi.

Ayniqsa, hozirda butun dunyo tomonidan bartaraf etishga harakat qilinayotganiga qaramasdan, maʼlum bir buzgʻunchilikni maqsad qilib harakatlanayotganlar koʻpaymoqda.

"Terror" deb atalmish sizning ortida insonlarning butun bir hayoti va hokimiyatning qulashi kabi nozik muammolar yotadi. Terrorchilik nomi ostida harakat qilayotganlar oʻz maqsadlarini tariximizda boʻlganidek Arab xalifaligini qaytadan qurish bilan bogʻlaydi, va islom dinini niqob qilib olishadi, lekin ular nahotki, paygʻambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning -"Xalifalik mening ummatim orasida 30 yil davom etadi. Undan keyin esa saltanat boʻladi." degan gaplarini eshitmagan boʻlsalar!?

Shu oʻrinda savol tugʻiladi: Terrorchilik harakatlari harakatlari qachon yuzaga kelgan!?

Baʼzi olimlar terrorchilikning paydo boʻlishini qadimgi davrlarga borib taqaladi,- Ular har bir jinoyatning tub mohiyati ostida terrorchilik harakati yotadi-deya taʼrif beradilar. Buning uchun antik davrda hukmronlik qilgan buyuk imperator Yuliy Sezarning oʻz doʻsti Yuliy Brut va Gay Kassiy boshchiligidagi fitnachilar tomonidan oʻldirilishini terrorchilik harakatlarining asta-sekin yoyilib borishi uchun misol qilib koʻrsatishgan. Baʼzi qarshi tomon fikrlovchilar esa terrorchilikning yuzaga kelganiga hali 2 asr ham boʻlgani yoʻq deyishadi. U. Jarinov esa bir yarim asr davomida insoniyatning bunga duch kelayotganini aytadi. XXI asr texnologiyalar asrida OAV juda keng rivojlangan. OAV orasida terrorizmni dinga bogʻlab, "Islom terrorizmi" deb atala boshladi. Yuqoridagi bir guruh tadqiqotchilarning fikriga yondashadigan boʻlsak, demak, qadimdan boshlangan turli davrlarda oʻzgarishlarga uchragan. Terrorizmning kelib chiqishiga xos yana bir sabab-bu uni olimlar Napoleon Bonapartdan keyingi tiklanish davriga bogʻlashadi.

Unda nega biz hozirda terrorizmni din bilan bogʻlayapmiz? Qadimgi davrlarda terrorizm mutloq boshqacha yaʼni ochiqdan-ochiq hujumlar shaklida boʻlgan. Hozirgi vaqtda esa dindan foydalanish ularga juda qulay boʻlyapti.

Terror yoki terrorizm tushunchalariga toʻxtaladigan boʻlsak, u birinchi marta 1793-1794-yillarda fransuz lugʻatiga isteʼmol uchun kiritilgan, va uning maʼnosi lotincha "qoʻrquv","daxshat" degan maʼnolarni anglatadi. Terroristik qarashlarning peshvolari yoshlarning ongini mutaassib qarashlar bilan zaharlab, oʻzlarining safiga qoʻshishlari kelajakning tanazzulga yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Ular. Nafaqat yoshlar, balki davlat rahbarlari orasida ham maʼlum bir tahdidlarni oʻtkazishgan.

Masalan: Keyinchalik Oʻzbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov bunday deb eslagandi,"1991-yil 8-dekabrda men Namanganga borib aqlini yoʻqotgan, oʻziga "olloh lashkarlari" deb nom qoʻyib olganlar bilan, oʻsha Yoʻldoshev Tohir bilan yuzma-yuz boʻlganman.

¹ Yuldashev.J.T. Terrorizm jinoyatining sotsial jamiyatgasolayotgan xavf-xatarlari hamda ularga qarshi kurashning maʼdaniy-maʼrifiy usullari-2-bet.

O'shanda mendan ular islom davlatini, Islom respublikasini hozir e'lon qilasiz deb talab qilishgan. Soqoli tizzasiga tushadigan kimsalar odamlarning boshini aylantirib, shu masalalarni ko'targanlari hali ham esimda, ovozlari hali ham qulog'imda

turibdi"².Terrorizmning salbiy oqibatlaridan biri shundaki, bittagina hujum natijasida qanchadan qancha "inson" deb ataluvchi jonzoatlarning hayotiga zomin bo'lishadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytilish joizki, jannatmakon yurtimizning doimo tinch va farovon bo'lib, gullab-yashnashi uchun astoydil harakat qilishimiz va yoshlarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. "Qush inida ko'rganini qiladi "-degan aqidaga amal qiladigan bo'lsak, oilada farzand uchun ota-onaning o'rnini kattaligini anglaymiz. Hatto dinimizda ham tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan: Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning "Hech bir ota-ona o'z farzandiga yaxshi tarbiya va go'zal odobdan buyukroq hadya bera olmas" degan jumllalarini keltirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
2. Yuldashev J.I. Terrorizm jinoyatining sotsial jamiyatga solayotgan xavf-xatarlari hamda ularga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy usullari // Topical Issues of Science. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7366546> -2b
3. R. Ernazarov. "Terrorizm – xavfli illat". Manba: <https://zamaxshariy.uz/1830/>.
4. Yaqin Sharqdagi terror xavfi. Manba: <https://www.old.islomonline.uz/index.php/item/465-yaqin-sharq-terror-xavfi> (Murojaat sanasi: 04.18.2026).
5. Xoliyeva T.Ch. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv-uslubiy majmua. – Termiz: Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti. -19-20b
6. R. Ochilova. Terrorizm – xavf va xatar. Nargis.uz, 2020. – URL: <https://nargis.uz/31911/>
7. Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy (Al-Jome' al-kabir). – Toshkent: "Adolat", 2019. – 2226-hadis.
8. Eshquvvatov A.A. Diniy ekstremizm va terrorizm: salbiy oqibatlar // Journal of New Century Innovations. – 2023. – Volume 30, Issue 1. – URL: <http://www.newjournal.org/>

² Xoliyeva.t.ch. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv uslubiy majmua.-19-20-bet.